Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319977

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUV JARAYONIDA MUHIT TAHLILI VA UNDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, "Savdo ishi" kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada korxonalarning strategik boshqaruvida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida muhit tahlili jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda PESTEL, SWOT va Porter besh kuchi tahlil modellarini raqamlashtirish imkoniyatlari, sun'iy intellekt hamda katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini strategik qaror qabul qilishda qo'llash samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada raqamli transformatsiya orqali muhit tahlilini optimallashtirishning amaliy yo'llari taklif etilgan va ushbu yondashuvning iqtisodiy samaradorligiga oid xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv, barqaror rivojlanish, muhit tahlili, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, Big Data, PESTEL, SWOT.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются современные методы использования цифровых технологий в процессе анализа среды для обеспечения устойчивого развития в стратегическом управлении предприятиями. В исследовании анализируются возможности цифровизации моделей анализа PESTEL, SWOT и пяти сил Портера, а также эффективность использования технологий искусственного интеллекта и больших данных (Big Data) в стратегическом принятии решений. В статье предлагаются практические способы оптимизации анализа окружающей среды с помощью цифровой трансформации и приводятся выводы об экономической эффективности этого подхода. **Ключевые слова:** стратегическое управление, устойчивое развитие, анализ окружающей среды, цифровые технологии, искусственный интеллект, большие данные, PESTEL, SWOT.

ABSTRACT

This article examines modern methods of using digital technologies in the process of environmental analysis to ensure sustainable development in the strategic management of enterprises. The study analyzes the possibilities of digitizing PESTEL, SWOT and Porter's five forces analysis models, as well as the effectiveness of using artificial intelligence and Big Data technologies in strategic decision-making. The article proposes practical ways to optimize environmental

Published: 05.06.2026

Cite this article: Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna (2026). Korxonalarning strategik boshqaruv jarayonida muhit tahlili va unda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319977

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

analysis through digital transformation and presents conclusions on the economic efficiency of this approach.

Keywords: strategic management, sustainable development, environmental analysis, digital technologies, artificial intelligence, Big Data, PESTEL, SWOT.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar uchun barqaror rivojlanishni ta’minlash tobora murakkablashib bormoqda. Raqobat muhiti, texnologik o‘zgarishlar va global muammolar korxona rahbarlaridan tezkor, aniq va asoslangan qarorlar qabul qilishni talab etmoqda [1]. Strategik boshqaruvning markaziy elementi sifatida muhit tahlili korxonaning ichki va tashqi sharoitlarini baholash hamda kelajakdagi yo‘nalishlarni belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi muhit tahlili jarayonini tubdan o‘zgartirish imkoniyatini yaratdi. Sun’iy intellekt (SI), katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash va Internet of Things (IoT) kabi texnologiyalar korxonalarga real vaqtda ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishga yordam bermoqda [2]. O‘zbekiston Respublikasida ham «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida iqtisodiyotni raqamlashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yilmoqda [3].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi muhit tahlili jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llari va uslublarini ilmiy asoslash, shuningdek ularni strategik boshqaruvda qo‘llashning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

1. MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llaniladi: tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik usul, induktiv va deduktiv mantiq usullari. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy asarlari, statistik ma’lumotlar hamda korxonalar amaliyoti o‘rganiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonning turli sohalardagi yirik va o‘rta korxonalari tanlangan. Axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma’lumotlari, Dunyo banki va OECD hisobotlari, shuningdek so‘rovnoma natijalaridan foydalaniladi. PESTEL tahlili (Political, Economic, Social, Technological, Environmental, Legal), SWOT tahlili va Porter besh kuchi modeli raqamli muhitga moslashtirilgan holda qo‘llanadi. Raqamli muhit tahlili uchun Python dasturlash tili asosida yozilgan sentiment tahlil algoritmlari, Power BI va Tableau kabi vizualizatsiya vositalari hamda mashinaviy o‘qitish (machine learning) modellari tatbiq etiladi.

2. NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni muhit tahlilida qo‘llash korxona strategik boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada

oshiradi. So‘rovnomada qatnashgan korxonalar orasida raqamli tahlil vositalaridan foydalanayotgan korxonalar va an’anaviy usullardan foydalanadigan korxonalar solishtiriladi.

Raqamli vositalardan foydalanadigan korxonalarda strategik qarorlar qabul qilish vaqti o‘rtacha 42% ga qisqarganligi aniqlandi [4]. PESTEL tahlilini avtomatlashtirilgan ma’lumot yig'ish tizimi bilan birgalikda qo‘llash tashqi muhit o‘zgarishlariga nisbatan munosabat tezligini 3,2 baravarga oshirdi. Big Data texnologiyasi asosida amalga oshirilgan raqobat tahlili an’anaviy usullarga nisbatan 67% ko‘proq foydali ma’lumot berdi.

So‘rovnoma natijalari bo‘yicha tuzilgan quyidagi jadval raqamli va an’anaviy muhit tahlili usullarini asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha taqqoslaydi:

1-jadval. Raqamli va an’anaviy muhit tahlili usullarini taqqoslash

Ko‘rsatkich	Raqamli usul	An’anaviy usul
Ma’lumot yig’ish tezligi	Real vaqt	Bir necha kun
Tahlil aniqligi	Yuqori	O‘rtacha
Sarflanadigan vaqt	42% kam	Standart
Qaror qabul qilish sifati	Yuqori	O‘rtacha

Shuningdek, Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash modellari bozor tendensiyalarini 78–85% aniqlik darajasida oldindan bashorat qildi, bu esa korxonalarga raqobat kurashida strategik ustunlik berdi [5]. IoT qurilmalaridan olingan ma’lumotlar ishlab chiqarish jarayonlaridagi muammolarni 30% erta aniqlash imkonini berdi.

O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, korxonalarning 68%i hali ham an’anaviy muhit tahlili usullaridan foydalanmoqda va raqamli vositalarni joriy etishda moliyaviy imkoniyatlar va mutaxassislar yetishmovchiligi asosiy to‘siq hisoblanadi [6].

4. MUHOKAMA

Olingan natijalar Westerman va boshqalarning [7] tadqiqotlari bilan mos keladi: raqamli transformatsiya korxona raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Biroq, tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar faqat insoniy kapital va tashkiliy madaniyat bilan uyg'unlikda samarali ishlaydi.

Porter modeli [8] ni raqamli muhitga moslashtirish jarayonida bir qator qiyinchiliklar aniqlandike ular: ma’lumotlar xavfsizligi muammolari, raqamli ko‘nikmalar yetishmovchiligi va tashkiliy o‘zgarishlarga qarshilik. McKinsey & Company [9] tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatsizlik

sabablari 70% hollarda texnologik emas, balki insoniy va tashkiliy omillar bilan bog'liq.

O‘zbekiston kontekstida Karimov va boshqalar [10] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan solishtirganda, bizning natijalarimiz milliy korxonalar uchun raqamli tahlil vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish zaruratini yanada aniqroq ko‘rsatib berdi. Raqamli transformatsiyaning samarali yo‘li texnologiyani oddiy qo‘llash emas, balki yaxlit strategik yondashuvni talab etadi.

5. XULOSA

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Muhit tahlili jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish korxonalarning strategik boshqaruv samaradorligini o‘rtacha 40–65% ga oshiradi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

2. Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosidagi PESTEL va SWOT tahlillari an’anaviy usullarga qaraganda ancha to‘liq va aniq ma’lumot beradi, bu esa strategik rejalashtirish sifatini sezilarli yaxshilaydi.

3. O‘zbekiston korxonalari uchun raqamli muhit tahlilini joriy etishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, malakali kadrlar tayyorlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

4. Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun korxonalar texnologik vositalarni qo‘llash bilan bir qatorda tashkiliy madaniyatni ham yangilashlari va barcha manfaatdor tomonlarni ushbu jarayonga jalb etishlari zarur.

Kelajakda tadqiqotni kengaytirish maqsadida turli soha va o‘lchamdagi korxonalar uchun raqamli muhit tahlili modellarini moslashtirishga qaratilgan qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] Mintzberg, H., Ahlstrand, B., & Lampel, J. (2009). Strategy Safari: A Guided Tour Through The Wilds of Strategic Management. Free Press, New York. 416 p.

[2] Provost, F., & Fawcett, T. (2013). Data Science for Business: What You Need to Know about Data Mining and Data-Analytic Thinking. O‘Reilly Media, California. 414 p.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash to‘g'risida»gi PF-6079-son Farmoni. Toshkent, 2020.

[4] Davenport, T. H., & Harris, J. G. (2017). Competing on Analytics: Updated, with a New Introduction. Harvard Business Review Press, Boston. 260 p.

[5] Varian, H. R. (2014). Big Data: New Tricks for Econometrics. Journal of Economic Perspectives, 28(2), 3–28. DOI: 10.1257/jep.28.2.3.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2023). O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish holati to‘g'risida hisobot. Toshkent, 2023. 88 b.

[7] Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. Harvard Business Review Press, Boston. 304 p.

[8] Porter, M. E. (2008). The Five Competitive Forces That Shape Strategy. Harvard Business Review, 86(1), 25–40.

[9] McKinsey Global Institute. (2022). The State of AI in 2022 and a Half Decade in Review. McKinsey & Company, New York. URL: https://www.mckinsey.com/capabilities/quantumblack/our-insights/the-state-of-ai-in-2022-and-a-half-decade-in-review.

[10] Karimov, A., Toshmatov, B., & Yunusova, M. (2022). O‘zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiya: muammolar va istiqbollar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №4, 112–125 b.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

BANK VA BANKLAR FAOLIYATI STATISTIKASI

QOSIMOV ABDULAZIM XAKIMJON O’G’LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti 3-bosqich talabasi
azimkasiomov@gmail.com (+998 90 015-51-35)
Ilmiy rahbar: Iqtisodiy statistika kafedrasi dots.i.f.b.f.d
AKBAROVA BARNO SHUXRATOVNA
barnoakbarova2019@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola bank va banklar faoliyati statistikasining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qiladi. Unda bank tizimining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, uning rivojlanish tendensiyalari hamda asosiy ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Tadqiqot bank faoliyatini baholash, samaradorligini oshirish va kelajakdagi strategik qarorlarni qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi. Olingan natijalar bank sektorining barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Bank, Bank faoliyati, Statistika, Iqtisodiyot, Moliyaviy barqarorlik, Bank sektori, Ko'rsatkichlar

В данной статье представлен углубленный анализ теоретических и практических аспектов банковского дела и банковской статистики. Рассматривается роль банковской системы в экономике страны, тенденции ее развития и ключевые показатели на основе статистических данных. Исследование предоставляет важную информацию для оценки банковской деятельности, повышения ее эффективности и принятия будущих стратегических решений. Полученные результаты служат обеспечению стабильности банковского сектора и поддержке экономического роста.

Ключевые слова: Банк, Банковское дело, Статистика, Экономика, Финансовая стабильность, Банковский сектор, Показатели

This article provides an in-depth analysis of the theoretical and practical aspects of banking and banking statistics. It covers the role of the banking system in the country's economy, its development trends and key indicators based on statistical data. The study provides important information for assessing banking activities, improving their efficiency and making future strategic decisions. The results obtained serve to ensure the stability of the banking sector and support economic growth.

Keywords: Bank, Banking, Statistics, Economy, Financial stability, Banking sector, Indicators